

7-mavzu: [a] tovushi. Aa harfi

Dars maqsadi:

- [a] tovushining talaffuzi va Aa harfining bosma shakli bilan tanishadilar ;
- [a] unli tovush ekanligini bilib oladilar.
- so'zlardan [a] tovushining o'rnini aniqlashni o'rganadilar;
- so'zni bo'g'inga bo'lib, undagi tovushlar sonini aniqlaydilar;

Tayanch so'zlar: Omonim so'zlar imlosi, bo'g'in hosil qilish, [a] tovushi,

Didaktik materiallar: ko'k va qizil rangli kichik kvadratlar, rasmlı kartochkalar

Darsning borishi:

I.Kirish qismi (5 daqiqa)

Faollashtirish mashqi:

Kalendar : O'quvchilardan bugungi kun sanasi so'raladi.

Bu qiziq mashqi: O'qituvchi bitta so'z aytib uni rasmini ko'rsatadi. O'quvchilar shu so'zning ikkinchi ma'nosini topadilar. Ot –hayvon, o't-o'simlik, yoz-fasl

- Bugun siz bilan "Bu qiziq" mashqini o'tkazamiz. Men sizga so'z aytib uni rasmini ko'rsataman. Siz shu so'zni yana qanday hollarda ishlatish mumkinligini topasiz.

Asosiy qism (40 daqiqa)

1.Amaliy topshiriq bajarish: (5 daqiqa)

O'qituvchi doskaga bola yig'layotgan, tish shifokorida og'zini ochib turgan bola rasmini qo'yadi. O'quvchilardan bu rasmlargi bolalar qanday tovushni talaffuz qilayotganlarini so'raydi.

Doskadagi rasmlarga diqqat bilan qarang va ularni qanday tovushni talaffuz qilayotganlarini toping.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

- *Bolalar qanday tovushni talaffuz qilyaptilar deb o'ylaysiz?*
- *Rasmlarga qarab qanday gap tuzish mumkin?*

Javoblar xulosalanib, yangi mavzudagi tovush tushuntiriladi

2.Mavzuni tushuntirish: (12 daqiqa)

O'qituvchi [a] tovushini qanday hosil bo'lishini tushuntiradi. Unli tovushlar to'siqqa uchramasligi, cho'ziq aytilishi va unli tovushlarni chizmada shartli ravishda qizil rangda belgilanishini (qizil kvadrat shaklni ko'rsatiladi) aytiladi.

Darslikda berilgan QR kod orqali tovush eshittiriladi.

O'qituvchi uchun eslatma:

A tovushini talaffuzida quyidagi holat yuz beradi: Lablar aylana shaklida(cho'ziqroq),til ildizi bir oz pastga tushitiladi, yumshoq tanglay tomoqning orqa devoriga siqilgan bo'lib, burun yo'llarini yopib turadi, havo oqimi og'iz bo'shlig'i orqali o'tib ketadi, tovush boylamlari bog'langan bo'lib, tebranadi va tovush hosil bo'ladi.

Darslikda berilgan rasm asosida so'z tahlili chizmasi tushuntiriladi.

O'quvchilarga bo'g'in hosil qilish tartibini darslikdagi topshiriq orqali tushuntiradi. Unda avval [a] tovushi cho'ziq aytilib, so'ng [t] tovushini qo'shib aytiladi. Hosil bo'lgan bo'g'in o'qiladi. - **at** bo'g'ini yopiq bo'g'in ekanligi aytiladi. [t] undoshini talaffuzi qilib turib, unga [a] unlisi qo'shib aytilganda – **ta** ochiq bo'g'ini hosil bo'lishi tushuntiriladi.

Aa harfining bosma ko'rinishi bilan tanishtiriladi. Harflarning uch xususiyati: yozilishi, ko'rish mumkinligi va ularni o'qish mumkinligi aytiladi. Xulosada harflar o'qilishi, yozilishi va ularni ko'rish mumkinligi; tovushlarni esa eshitish va talaffuz qilinishi aytiladi.

Harf va bo'g'inlar o'qitiladi.

Darslikda berilgan she'r o'qib beriladi yoki o'qishni biladigan o'quvchilarga o'qitiladi. She'r mazmuni bo'yicha suhbatlashadilar.

- *She'r nima haqida?*
- *Unda qaysi so'zlarda [a] tovushi ishtirok etadi?*
- *Siz yana qanday [a] tovushi qatnashgan so'zlarni bilasiz?*

Daftar bilan ishlash: (8 daqiqa)

Aa harfi qizil rangga bo'yaladi.

Ayiq, asal so'zlarining chizmasidan a harfining o'rni aniqlanadi va katak bo'yaladi.

Berilgan namunadan bosma Aa harfining bosh va kichik ko'rinishini avval nuqtalar ustidan so'ng o'zlari yozadilar.

Darslik bilan ishlash: (10 daqiqa)

1.Rasmni ifodalovchi so'zlardan [a] tovushinig o'rnini toping.


2.O'quvchilarga quyidagi savollarni berish tavsiya qilinadi:

Qizga qanday a tovushi bilan boshlanadigan ism qo'ysa bo'ladi?

Idishdagi narsa nima?

Nima deb o'ylaysiz qizga ham asal deb ism qo'ysa bo'ladimi?

Demak, shunday so'zlar bor ekanki ularni biz ham kishilar ismida ham biror narsani nomini aytganda uchratamiz. Kishilar ismi doim bosh harf bilan yoziladi. Qani ismlar orasidan shunday hususiyatga ega bo'lganlarini topib ko'ring.



Daftar bilan ishlash: (3 daqiqa)

1.Aa harfining o`rnini topib bo`yang.

Darsga yakun yasash:

-Qanday tovush bilan tanishdingiz?

-Mashg`ulotda nimalarni eslab qoldingiz?

8-mavzu: [a] tovushi. Aa harfi yuzasidan amaliy topshiriqlar

Dars maqsadi:

- [a] tovushining talaffuzi va Aa harfining bosma shakli yuzasidan amaliy topshiriqlar bajaradilar;
- so'zlardan [a] tovushining o'rnini aniqlashni o'rganadilar;
- so'zni bo'g'inga bo'lib, undagi tovushlar sonini aniqlaydilar;

Tayanch so'zlar: gap tuzish, so'z hosil qilish, [a] tovushi, so'zdagi tovushlar sonini aniqlash chizmasi.

Didaktik materiallar: ko'k va qizil rangli kichik kvadratlar, rasmlar, kartochkalar "Alpomish" multfilmi

Darsning borishi:

I.Kirish qismi (5 daqiqa)

Kalendar : O'quvchilardan bugungi kun sanasi so'raladi.

Faollashtirish mashqi:

Gap tuzamiz mashqi: O'qituvchi doskaga 2 ta rasm qo'yadi. Shu rasmlarni ifodalovchi so'zlarni bir biriga bo'lab gap tuzishni so'raydi. Masalan: bola va koptok rasmi.

- Bugun siz bilan "Gap tuzamiz" mashqini o'tkazamiz. Doskadagi rasmlarni ifodalovchi so'zlarni bir biriga bog'lab gap tuzing.

Asosiy qism (40 daqiqa)

1.Amaliy topshiriq bajarish: (5 daqiqa)